

O‘QUV JARAYONINI TASHKIL QILISHDA LOYIHAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Raupova Zarina G‘olib qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

1-bosqich magistranti

E-mail: zarinaraupova07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil qilishni nazarda tutib, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish, o‘qituvchining pedagogik faoliyatini loyihalashtirib tashkil etishni hisobga olgan holda yozilgan. Ushbu maqoladan fan o‘qituvchilari, magistrlar, talabalar va barcha qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: metod, ta’lim metodlari, usul, texnologiya, pedagogik texnologiya, ta’lim jarayoni, loyiha.

USE OF DESIGN TECHNOLOGIES IN THE ORGANIZATION OF THE LEARNING PROCESS

Annotation: This article is written with a view to the organization of the educational process on a scientific basis, the application of innovative pedagogical technologies in the educational process, the design and organization of pedagogical activity of the teacher. This article can be used by science teachers, masters, students and anyone interested.

Keywords: method, teaching methods, method, technology, pedagogical technology, educational process, project.

Respublikamizda ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi ta’lim tizimi sifatini yuqori saviyaga olib chiqishni talab etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning: “Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiya o‘qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qo‘llash, shuningdek qo‘llanilayotgan usullarni baholash yo‘li orqali ta’lim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo‘llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadidagi tadqiqotdir”,-degan fikrlari buning yaqqol namunasi.

Metod, usul va texnologiya. Ta’lim metodi tushunchasi anchagina murakkabdir. Shu bois pedagogikada uning tobora aniq talqini xususida munozara haligacha davom etmoqda. Biroq bu tushunchaga beriladigan didaktlarning turli ta’riflariga qaramay, ularning nuqtai nazarlarini yaqinlashtiradigan qandaydir umumiylikni ham ta’kidlash mumkin.

Ta’lim metodlari deyilganda, o‘rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo‘yicha o‘qituvchining o‘rgatuvchi ishi va o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig‘indisi tushuniladi.

Pedagogik texnologiya - bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayoni mazmunidir. Har qanday pedagogik texnologiya, jumladan umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishga yo‘naltirilgan texnologiya ham o‘zaro hamkorlik, muloqot, ularning bir-birlariga ta’sirlari eng zamonaviy talablarga javob bergan holda, o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish tamoyillari, yo‘llari, umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi metod va uslublar, o‘quvchilar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, ular bilan hamkorlik qilish, muloqotga kirishish, pedagogik faoliyatini tashkil etish jarayonida yuzaga keluvchi muammo va qarashlarni birgalikda hal etish, auditoriyada ijodiy hamkorlik, ishchanlik muhitini hosil qilishga doir shakl va metodlar bilan qurollangan bo‘lishi lozim.

“Metodika” va “texnologiya” tushunchalarining bahs doirasi bilan ham bog‘liqlikda ayrim farqli jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Jumladan, metodik tizim “Qanday o‘qitish?”, “Nima uchun o‘qitish?”, “Nimaga o‘rgatish?” kabi savollarga javob izlaydi, texnologiya esa, “Qanday tarzda samarali o‘qitishga erishish mumkin?” degan savolni markazga qo‘yadi.

Dars jarayonini tashkil etishda esa loyihaviy texnologiyalar asosida o‘qitish faoliyati o‘quvchining o‘quv faoliyatini tashkil etuvchi jarayon hisoblanadi. Bunda:

- O‘qituvchi tomonidan taklif etilgan o‘quv loyihalari, kichik loyihalarning maktab o‘quvchilari tomonidan bajarilishi ko‘zda tutiladi.
- O‘quv loyihalari oldindan ishlab chiqilgan mezon ko‘rsatkichlari asosida baholanadi.
- Loyiha asosida o‘quv faoliyatini tashkil etishga o‘qituvchi rahbarlik qiladi va u loyihaning koordinatori hisoblanadi.
- Loyihalar yakka shaxslarga va guruhlarga qaratilgan bo‘ladi.
- Loyiha topshiriqlari aniq, ravon shakllantirilgan, uning maqsad va vazifalari tushunarli qaniqlangan, o‘quvchilar bilan uning ijro yo‘llari va mexanizmlari kelishilgan bo‘ladi.

Loyihaviy texnologiyalar asosida tashkil etiladigan darslar o‘qituvchidan darsni tashkiliy jihatidan puxta o‘ylangan, sifatli, ishchanlik muhitida, o‘quvchilarni jarayonga qiziqтира oladigan tarzda loyihalay olishni talab etadi. O‘quv jarayonini loyiha asosida tashkil etishda o‘qituvchi faollikda ish yurituvchi emas, balki keng qamrovli ijodkor pedagog rolini o‘tashi talab etiladi.

Loyihaviy texnologiyalar asosida tashkil etiladigan darslar va unga sarf etiladigan vaqt, tashkiliy ishlar, beriladigan va to‘g‘ri yo‘lga soluvchi savollar oldindan rejalashtirilishi kerak. Undan tashqari dars jarayonida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan kamchilik, xatolar, ularning oldini olish, jarayonning tahliliy tomonlari ham oldindan hisobga olinishi kerak.

Dars jarayonini qanday texnologiya va metodlar asosida tashkil etishda o‘quvchilarning o‘rtacha bilim darajasi ham muhim rol o‘ynaydi. Guruhda o‘quvchilarning bilim darajasi yuqori bo‘lsa, muvofiq ravishda ijodiy izlanishga

undaydigan texnologiyalarni qo‘llash zarur. Bu ularni yanada ko‘proq o‘qishga, izlanishga olib keladi. Bilim darajasi past bo‘lsa, ularga fanning mazmunini o‘zlashtirishga yordam beruvchi texnologiyalarni tanlagan ma‘qul.

Loyihaviy texnologiyalar ta‘lim jarayonining muhim bo‘g‘iniga aylanmoqda. Bunday texnologiyalar ta‘lim oluvchilarga hayot tarziga moslashish, mustaqil, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini hosil qilishga yordam beradi. Loyihaviy texnologiyalar ta‘lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, o‘qituvchining talabalar bilan individual ishlash imkonini beradi. O‘qituvchi dars vaqtidan unumli foydalanib, talabalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi. Bunda ularning fanlarni chuqurroq egallashlariga kengroq yo‘l ochib beriladi. Loyihalash ishlarini tashkil etishda didaktik vazifaning qo‘llanilishi va uni hal etish muammolari ko‘rib chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azizxo‘jaeva N.N. “O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi” – T.:TDPU, 2000. – 52 b.
2. Mahmudov M. O‘quv materialini didaktik loyihalash tizimi. “Pedagogik mahorat”, 2002 yil, 3-son, 3-11 betlar.
3. Mahmudov M. Ta‘lim natijasini loyihalash. “Pedagogik mahorat”, 2003 yil, 1-son, 8-10 betlar.
4. Tolipov Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.
5. www.google.com
6. <https://uz.atomiyme.com>
7. <https://hozir.org>